

MUSIQA FANINI O'QITISHDA O'QUVCHILARDA UMUMADANIY KOMPITENSIYANI PIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Axmedova Farangiz Alisher qizi

Turkiston Yangi Innovatsiyalar universiteti musiqiy ta'lim 2-bosqich magistr

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.007>

Annotatsiya: maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa fanini o'qitish orqali o'quvchilarning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik ta'minoti, pedagogik omillari, o'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablar va uning pedagogik mahorat darajasi, o'quvchida musiqiy madaniyat ko'nikmasini tarkib toptirish, jamoa bo'lib kuylash orqali o'quvchilarda umummadaniy kompetentlikka egalik sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlanish haqida fikr-mulohazalar yuritilgan va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: musiqa, jamoa bo'lib kuylash, musiqa tinglash, musiqiy madaniyat, umummadaniy kompetensiya, ko'nikma, shaxsiy sifat, badiiy matn, musiqiy tafakkur, musiqiy tasavvur, dunyoqarash, faxr-iftixor, qadriyat.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ВОСПИТАНИЯ ОБЩЕКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У УЧАЩИХСЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ МУЗЫКОВЕДЕНИЮ

Ахмедова Фарангиз Алишеровна

*Туркестанский университет новых инноваций музыкальное образование
магистр 2-го курса*

Аннотация: В статье дидактическое обеспечение развития общекультурной компетентности учащихся посредством преподавания музыки в общеобразовательных школах, педагогические факторы, требования к личности учителя и уровень его педагогического мастерства, содержание навыков музыкальной культуры у учащихся, воспитание и развитие у учащихся качеств обладания общекультурной компетентностью посредством коллективного пения и др. даны рекомендации.

Ключевые слова: музыка, пение в команде, прослушивание музыки, музыкальная культура, мультимедийная компетентность, навыки, личностные качества, художественный текст, музыкальное мышление, музыкальное воображение, мировоззрение, гордость, ценность.

DIDACTIC POSSIBILITIES OF BREWING UNIVERSAL COMPETENCE IN STUDENTS IN TEACHING MUSIC

Akhmedova Farangiz Alisher daughter

*Turkestan new Innovation University music education
Master of Stage 2*

Abstract: the article discusses didactic provision of the development of universal competencies of students by teaching music in schools of general secondary education, pedagogical factors, requirements for the personality of the teacher and his pedagogical skill level, content of musical culture skills in the student, education of the qualities of possession of universal competence in students by singing as a team, as well as

Keywords: music, singing as a team, listening to music, musical culture, undergraduate competence, skills, personal quality, artistic text, musical thinking, musical imagination, pride, value.

Kirish. Jahon umumta'lim tizimida o'quvchilarni musiqiy rivojlantirish, maktab repertuari vositasida ularning umummadaniy kompetensiyasini rivojlantirish, musiqiy qobiliyatlarini,

kuylash va tinglash malakalarini oshirish, musiqaning badiiy mazmun, emotsional ta'sir imkoniyatlarini kengaytirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ilmiy-tadqiqot muassasalarida musiqiy idrok, musiqiy intonatsiya, tinglovchilik madaniyati, musiqaning kommunikativ imkoniyatlari, badiiy-estetik ta'sir xususiyatlarini o'zlashtirishda interaktiv texnologiyalarni joriy etishga doir ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga, maktabda musiqa fanini o'qitish orqali o'quvchilarning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga, ularda badiiy tasavvur va tafakkur qobiliyatlarini tarkib toptirish, o'qitishda nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash kabi masalalarga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga ham zamonaviy yondashuv asosida alohida e'tibor berilmoqda.

Mavzuning dolzarbligi.

Hozirgi kunda musiqa madaniyati jamiyatimizda faqat badiiy hodisa emas, balki, ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatida namoyon etilayotganligi undagi badiiy-estetik mazmuni anglagan holda munosabat ko'rsatishni taqozo etadi. Umumta'lim maktabi musiqa o'quv mashg'ulotlarida ko'p hollarda tinglash faoliyati talab darajasida amalga oshirilmaligi muammoni yanada dolzarblashtiradi.

O'zbekistonning rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olishida ta'lim-tarbiyaga oid islohotlarning ijrosini sifatli ta'minlash dolzarb vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat har qanday mamlakat va xalqni yuksaklikka ko'taradi, uning taraqqiyotini ta'minlaydi, kelajagini oldindan ko'rsatib beradi.

Yangi O'zbekiston strategiyasida tarixiy-ma'naviy omil, ya'ni xalqimizning ulkan madaniy merosi, intellektual salohiyati asosida tarixiy ideallarga oid xolis munosabatni va dunyoqarashni shakllantirish va shu asosida "milliy tarixni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizga milliy ruxda yetkazish, ularning qalbiga, shuuriga singdirish, o'quvchi yoshlarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Adabiyotlar tahlili.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa fanini o'qitish orqali o'quvchilarda umummadaniy kompetensiyani rivojlantirishga oida adabiyotlar o'rganilganida ta'lim-tarbiya jarayonlarida fanlarni o'qitishda o'quvchilar kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot ishlariga oid tizimli izlanishlar olib borilganligini ko'rish mumkin. Jumladan, o'zbekistonlik olimlardan M.Aripov, E.Yusupov, N.Komilov, X.O.Shayxova, V.Alimasov, M.Jakbarov, E.Umarov, A.Choriyev, A.Qodirovlarning asarlari, E.M.Izzetova, R.R.Burnashev va S.S.Agzamxodjayevaning dissertatsiyalarida ta'lim jarayonida o'quvchilarga turli tarixiy obrazlar va milliy boyliklar haqida ma'lumot berish orqali ularda milliy iftixor tuyg'usini oshirish masalalari yoritilgan. O'quvchilarda madaniy kompetentlikni rivojlantirish borasida N.Abdumuratova, D.Nafasov; ma'naviy va badiiy qadriyatlarining axloqiy-estetik mazmun-mohiyati A.G.Abdunabiyev, B.Abduraximov, S.Sh.Alimov, A.Erkayev, F.A.Babashev, E.Umarov, M.Abdullayev, E.Xakimov, N.Y.Jurabayevlar tomonidan o'rganilgan. Psixolog olimlardan M.Davletshin, V.Karimova, A.Leontev, A.Maslou, Z.Nishonova, L.Rubinshteyn, N.Safayev, E.G'oziyev kabilar tomonidan muammoning psixologik jihatlari o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida madaniy kompetentlikni ta'limga tatbiq etish, o'qituvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini shakllantirish masalasi T.B.Alekseyeva, G.M.Galutskiy, I.F.Isayev, Y.N.Shiyanov, V.Davidov, B.Lednev, S.K.Annamuratova, N.M.Egamberdiyeva, C.Z.Goncharova, V.L.Kraynik, N.Y.Shurkova va boshqalar tomonidan ilmiy asosda o'rganilgan.

Aynan, umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarida umummadaniy kompetensiyani rivojlantirish muammosi turli soha olimlari tomonidan ilmiy-pedagogik tadqiq etilgan bo'lsada, biroq musiqa fanini o'qitish orqali o'quvchilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish masalasi maxsus tadqiq etilmagan.

Tahlil va natijalar.

Musiqqa fanini o'qitish orqali o'quvchilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan faoliyat mohiyatini yoritishda "nafosat", "badiiylik", "musiqqa", "rivojlanish", "tarbiyalash", "omil", "pedagogik ta'sir", "san'at", "milliy iftixor" va "milliy o'zlikni anglash" kabi tushunchalar tayanch tushunchalar sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot muammosini ijobiy hal etishda bu tushunchalarning mazmunini to'laqonli anglab olish taqozo etiladi.

Demak, o'qituvchilarning umumadaniy kompetentligi qadriyatlarga hurmatda bo'lish, qadrlash, o'z-o'zini tutish, o'zgalarga hurmat, madaniy savodxonlik, odob-axloq ko'nikmalariga egalik, shaxs sifatida o'z - o'zini rivojlantirishni bilish, anglash va ularga ega bo'lishni, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash ko'nikmalarga nisbatan aytiladi.

Adabiyotlarda umummadaniy kompetensiyaga berilgan ta'rifga e'tibor beradigan bo'lsak, umummadaniy kompetensiya - vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi[2].

Rossiya gumanitar ilmiy fondi homiyligida amalga oshirilgan «Universal kompetensiyalar – shaxsga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasining tarkibiy qismi sifatida» nomli loyiha doirasida ishlab chiqilgan kompetensiyalar tasnifida umumadaniy kompetentlikka egalik mezonlari quyidagicha belgilangan:

- milliy va umuminsoniy madaniyat;
- insoniyat va inson hayotining ma'naviy-axloqiy asoslari;
- oila, ijtimoiy hodisa va an'analarning madaniyatshunoslikka doir asoslari;
- inson hayotida fan va dinning rolini anglash va faoliyat tajribasini egallash hisoblanadi[3].

Biz, o'z tadqiqotlarimiz asosida musiqqa darslari orqali o'quvchilarda rivojlantiriladigan umummadaniy kompetensiyaga quyidagicha ta'rif berishga harakat qildik. Demak, umummadaniy kompetentlik o'quvchining kelajakda muvaffaqiyatlarga erishishini ta'minlovchi, uning qadriyatlarga asoslangan shaxsiy hayoti davomida mazmunli yashashini kafolotlovchi ko'nikma hisoblanadi.

Musiqqa darslarida o'quvchilarning umumadaniy kompetentligini rivojlantirish asosida bugungi kunda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qadrlash bilan bog'liq ijtimoiy ongda muammolarni, madaniyatshunoslikdagi qadrsizlanish muammosini, fan va din o'rtasidagi munosabatlarni, ilmiy va diniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash jarayonida ko'zga tashlagnayotgan muammolarga o'z yechimini taklif qila oladigan, innovatsion yondashuvlar bilan qaray oladigan, umuman olganda ijtimoiy munosabatlardagi muammolarni tajriba asosida bartaraf eta oladigan mutaxxasislarni tayyorlash imkonini beradi.

Mamlakatimizda musiqqa o'qituvchilarini tayyorlashning ilmiy metodik muammolari, pedagogik jarayonlarning didaktik ta'minotini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga kasbhunar kollejlari uchun ham zamon talabiga javob beradigan o'qituvchilarni tayyorlash zaruriyati oshib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining taraqqiyot strategiyasida "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" ustuvor vazifalari belgilanib, bu borada kasbiy kompetentlikni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini aniqlash, ularni ta'lim jarayoniga joriy qilishning ilmiy-metodik jihatlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, insonning shaxs sifatida shakllanishida musiqqa san'atining beqiyos ahamiyatini, uning ilohiyligini, ruhiyat bilan bog'liqligini o'tmish allomalari doimo ta'kidlab kelganlar. Musiqqa yosh avlodning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur, vatanparvarlik, nafosat va ijodkorlik tarbiyasini amalga oshirishga, dunyoqarashini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni o'stirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, musiqqa fanining juda katta tarbiyaviy imkoniyatlari o'qituvchining

jiddiy kasbiy tayyorgarligi, o'quvchi shaxsiga hamda uning musiqiy ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan doimiy e'tibori asosidagina yuzaga chiqadi. Shu bilan bir qatorda musiqa o'qitishning samarasini belgilovchi muhim omillardan biri musiqiy metodik masalalarning nazariy jihatdan ishlab chiqilganligi va uning amaliyot bilan bog'liqligi darajasidir.

Tadqiqot rivojida musiqa darslarida o'quvchilarning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish quyidagi imkoniyatlarni ochib berishga xizmat qiladi:

- ta'lim jarayoni mazmunini tanlash, rejalashtirish, loyihalash, tashkil qilish, amalga oshirish, boshqarish va sifatini nazorat qilish metodologiyasini takomillashtirish;
- ta'limning sifat va samaradorligini oshirish, uni individuallashtirish;
- o'quv jarayonida ta'lim subektlari – pedagog va o'quvchi hamkorlik faoliyati mazmunining yangi shakllarini yuzaga kelishi;
- o'qituvchining musiqiy savodxonlik va mutaxassislik mahorati darajasining yuqori bo'lishiga erishish;

- o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirish metodikasini takomillashtirish.

Musiqa darslarida o'quvchilarning musiqiy tinglovchilik madaniyati tarkib toptirishda:

- intonatsion-eshitish tajribasining to'planishi;
 - asarni intonatsion-tahliliy eshitishni;
 - musiqiy obrazni idrok etish orqali badiiy mazmunni anglash bosqichlari amal qiladi[5].
- Anglash jarayoni orqali o'quvchilarning umummadaniy kompetentlik darajasini rivojlanadi.

Ushbu bosqichlar iyerarxiyasi asosida amalga oshiriladi. Dastlab tinglash tajribasi to'planadi, keyin tinglangan asar ongda musiqiy obrazlar tarzida aks etadi, o'rnatiladi, so'ngra musiqaning to'laqonli idrok etilishi asosida badiiy-estetik mazmuni anglanadi.

Tinglash faoliyati mazmuni quyidagilar:

- a) musiqiy obraz;
- b) estetik-axloqiy asos (bastakor faoliyat ko'rsatgan davr va estetik-axloqiy qarashlari);
- v) badiiy tasvir (tinglovchi tomonidan kodlangan va amalga oshirilgan ijodiy tajriba, fikrlarning mantiqiy ketma-ketligi)dan iborat[5].

Shu bilan birga badiiy obraz musiqaning o'zida emas, balki uning tinglovchiga ongli ta'sirida namoyon bo'ladi. Tinglash faoliyatini samarali amalga oshirish darsning ajralmas qismi bo'lib, o'quvchiga musiqiy ijroning mohiyatini his qilishga, musiqani idrok etish, bilish va uni o'z faoliyatida tasarruf etishga qodir tinglovchi sifatida his qilishga yordam beradi.

Musiqiy tinglovchilik madaniyatining markaziy tushunchalaridan biri intonatsiyadir. Intonatsiya, musiqaning "ifodaviy mohiyatini", uning mazmunini ochishga ko'maklashadi, musiqiy ifodalilik vositalarini tanlash imkonini yaratadi, tinglovchilarga milliy san'at g'oyalarini, uning mazmunini yetkazadi. Mazkur jarayonda, aynan intonatsion yondashuvga tayangan holda tinglangan asarlarning badiiy-estetik mazmunini interaktiv muhitda, guruhliy diskussiya sharoitida o'quvchilarga yetkazish muhimdir.

Musiqani idrok qilishda shaxsning individualligi muhim rol o'ynaydi, ya'ni, har bir tinglovchi asar mazmunini o'zicha, individual tarzda anglaydi, shunga qaramasdan, umumiy jihatlar emotsional konstantalar - intonatsiyalar mavjud bo'lib, bular o'quv mashg'ulotlarida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarning asosini tashkil etdi.

Musiqadagi intonatsiya – ijodkorning aytmoqchi bo'lgan fikri, obektiv mohiyat g'oyasidir.

O'quvchilarning musiqani faol idrok etishi musiqiy ta'limning asosiy vazifasi bo'lib, o'zining estetik, kognitiv va tarbiyaviy rolini bajaradi, ya'ni, o'quvchilar tinglash orqali fikrlashni o'rganadi. Musiqiy idrok eshitishning odatiy shakllaridan farq qiladi, bunda tinglovchi dastlab tovush ketma-ketligini emas, balki intonatsiyalarni ilg'aydi va baho beradi.

Musiqiy idrok - ifoda vositalari, tasavvurlar, musiqa tabiatining yaxlit aks etishi, ularning go'zalligini his qilish qobiliyatidir. Musiqani idrok etishning o'ziga xosligi shundaki, turli

balandlikdagi, davomiylidagi, kuchlilikdagi, tembrdagi tovushlar uyg'unligida yaxlit badiiy obrazlarni, ohanglar go'zalligi, ularning ifodaliligini eshitish o'quvchi-tinglovchida pozitiv emotsional kayfiyat va ijobiy his-tuyg'ular uyg'otadi.

Musiqani idrok etishning sifati:

idrok etishga dastlabki ustanovka mavjudligi;

idrok etuvchi uchun musiqaning jozibadorligi;

asarga nisbatan emotsional reaksiyaning kuchi;

asarda ifodalangan estetik axborotning yangiligi darajasi;

musiqiy-eshitish tajribasi va musiqiy nazariy bilimlar hajmi kabi omillarga bog'liq[5]

Tadqiqotimiz davomida o'quvchilarda umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi mashg'ulotlar mavzular xususiyatiga ko'ra dialogik, faoliyatli, kompetensiyaviy, aksiologik, integratsiyalashgan va akmeologik yondashuvlar asosida amalga oshirishga harakat qildik.

Boshlang'ich sinflardan boshlab, musiqa darslarida o'quvchilarni jamoa bo'lib kuylashga o'rgatish usuli o'quvchilarni musiqa san'atiga faol jalb etishning eng ommaviy shakli bo'lishi bilan birga ularda zavqlanish va hamkorlik tuyg'usini oshiradi. Chunki musiqa kuylash bola uchun estetik ehtiyoj, hissiyat va kayfiyatni ifodalashning eng tabiiy va qulay vositasi hisoblanib, jamoa bo'lib kuylaganda ularda his-hayajon, zavq-shavq, ko'tarinlik, quvnoqlik, harakatchanlik kabi ijobiy tuyg'ular musiqadagi estetik vosita va badiiy so'zning birlashuvi natijasida ikki karra oshadi. Shuning uchun tajribali o'qituvchining qo'lida jamoa bo'lib kuylash – o'quvchilarni musiqiy-estetik tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Jamoa bo'lib qo'shiq kuylash faoliyati o'quvchilarda melodik, garmonik eshituv, ladni his etish, sof intonatsiya kabi musiqiy qobiliyatlarni rivojlantiradi. Ijro jarayonida ovozi va musiqiy eshituvi turlicha bo'lgan bolalar jamoa bo'lib birlashadilar, ularda o'z ijrolarini va o'rtoqlari ijrolarini eshitib kuzatish, birgalikda kuylashdan ilhomlanish, diqqat, kuzatuvchanlik, intizom kabi sifatlar tarbiyalanadi.

Shu bilan birga kuylash jarayonida o'quvchilarda ovoz apparati rivojlanadi, nafas chuqurlashadi, qon aylanishi yaxshilanadi, qomat tekislanadi, ya'ni jismonan ham bola rivojlanishi kuzatiladi.

Jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchilarda umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga erishish jaranida bir qator vazifalarni hal etish muhim hisolanadi:

- bolalarda jamoa bo'lib kuylashga qiziqish va muhabbatni o'stirish;
- musiqaga hissiy ta'sirchanlikni tarbiyalash;
- badiiy didni tarbiyalash;
- qo'shiqchilik ovozini, ya'ni chiroyli, tabiiy tovushda kuylashni shakllantirish, diapazonni o'stirish;
- badiiy ijroga erishish uchun vokal-xor malakalarini rivojlantirish;
- musiqiy qobiliyatlarni o'stirish[5];
- do'stona munosabatda kuylash orqali bolalarning qoniqish hosil qilishini e'tiborga olish;
- o'z-o'zi va o'rtoqlarining kuylash qobiliyatiga baho berish;
- qo'shiq matni mazmunida berilgan tarbiyaviy qadriyatli so'zlarni faxr bilan kuyga solishdan zavqlanish;
- shaxs sifatida o'z faoliyatidan mamnun bo'lish va faxrlanish kabi psixologik holatlarni ta'minlash shart.

Musiqa darslarida o'quvchilarning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishda eng samarali metodlardan biri – bu “Musiqani tavsiflovchi she'riy qiyoslar, metaforalar, epitetlar” metodidir. Metodning asosiy sharti o'quvchidan musiqani tinglab, u haqida fikr yuritishi, musiqani tavsiflovchi she'r, metafora, epitetlar keltirishi talab etiladi. Bu metod orqali o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalari rivojlantiriladi, ularda badiiy ijod, musavvirlik, haykaltaroshlik, duradgorlik, o'ymakorlik, zardo'zlik, chevarchilik, oshpazlik, applikatsiyalar yasash ijodkorligi va boshqa sohalarga bo'lgan qiziqish va intilishlar amaliy

faoliyat kasb etishiga xizmat qiladi. Tadqiqot doirasida umumiy oʻrta taʼlimda musiqa taʼlimini oʻqitish jarayonida oʻquvchilarning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish tizimini takomillashtirish, belgilangan maqsadning natijaga mosligini aniqlash imkonini beradi.

Xulosa.

Umummadaniy kompetentlikka ega boʻlish har bir komil inson uchun muhim shartlardan biri hisoblanib, ushbu kompetensiyani egallashga qoʻyilgan talab barcha fanlar kesimida kichik maktab yoshidan oʻquvchi ongiga singdirib borilishi davlat taʼlim standartlarida ham belgilab berilgan.

Bugungi kun zamonaviy taʼlim oldida turgan vazifalardan biri taʼlim tizimini tubdan isloh qilish, uning mazmunini xalqaro dasturlar va milliy dastur talablarining integratsiyalashuvi asosida takomillashtirish, bugungi jamiyat uchun ehtiyojlarga asoslangan oʻzgarishlarga tayyor va moslashuvchan, yuksak madaniyat va maʼnaviyatga ega, kasbiy bilimlar bilan qurollangan mutaxassislar tayyorlashdan iborat

Foydalanilgan adabiyotlar:

Oʻzbekiston Respublikasi “Taʼlim toʻgʻrisida”gi qonuni. 2020-yil 19-mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda maʼqullangan. OʻRQ-637. 23.09.2021.

Umumiy oʻrta taʼlimning Davlat taʼlim standarti. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori.

Oʻ.Tolipov, M.Usmonboeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. “Fan”. 2005 y.-205 b.

Abdullin, E. B. Muzikalno-pedagogicheskie texnologii uchitelya muziki:uchebnoe posobie / E. B. Abdullin, Ye. V. Nikolaeva. – M.: Prometey, 2005. – 232 s.

Xoʻjayeva M. Umumtaʼlim maktablarida musiqa oʻqitish metodikasi 2-nashri Oʻquv qoʻllanma Toshkent 2008